

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Maxmudova

Bakir Cho'ponzoda adabiy merosini o'rganishning o'zbek va Ozarbayjon xalqlari uchun pedagogik ahamiyati 6

F.O'.Toshboltayev

Integration of digital tools into the educational process 9

T.S.Aldasheva

"Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmuni 12

S. Sh.Abdullayev

Dasturlash fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish 16

I.M.Alimjonova

Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 21

A.H.Matyoqubova, X.X.Yuldashxodjayev

Turon teatr truppasi: o'zbek sahna san'atining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy omil 24

N.M.Ikromova, B.Isalayev

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida oliy ta'lim tizimi amalga oshirilgan islohotlar (1991-2000) 27

M.M.Mo'minova, T.V.Jo'rayev, M.M.Turdimatov

Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari ... 32

Q.B.Sobirjonov

Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yonadshuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish 38

P.N.Toshmurodov, B.E.Xujanov

Molekulyar fizikaga oid masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechish usullari 41

X.D.Muqimova

Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi 46

X.N.Abduraxmonov

Tibbiy ta'limda diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik strategiyalari: tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot 49

I.I.Baxromova

Adaptiv platformalarning til o'rganishdagi imkoniyatlari 54

Y.D.Kambarova

Есть ли роль автономии студентов на занятиях esp? 58

T.D.Namozova, Sh.D.Jo'raboyeva

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlik 63

Sh.N.Abdullaeva

Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration 72

V.I.Xoldarova

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari 79

N.Z.Umarova

Chet tili o'qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari (poetik matnlar yordamida) 82

I.A.Tuychiyev

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion harakat dasturlari va pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari 87

E.Muxtarov

So'nuvchi mexanik tebranishlarni raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish metodikasi 92

B.S.Shermuhammadova

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 100



UO'K:

CHET TILI O'QITISH JARAYONIDA SOTSIOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI (POETIK MATNLAR YORDAMIDA)**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ (НА МАТЕРИАЛЕ ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ)****METHODS OF DEVELOPING SOCIOCULTURAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE (BASED ON POETIC TEXTS)****Umarova Zebiniso Nizom qizi** 

Buxoro davlat universiteti II bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada ingliz tilidagi she'riy badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida sotsiokulturologik (sotsiomadaniy) kompetensiyani shakllantirish usullari bayon etiladi. Muallif mazkur kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligini asoslab beradi hamda uni kompetensiyaviy yondashuv doirasida nazariy jihatdan tavsiflaydi. Shuningdek, sotsiomadaniy kompetensiyaning tarkibiy qismlari aniqlanib, ularni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va samarali pedagogik strategiyalari ko'rsatib o'tiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются методы формирования социокультурной компетенции в процессе работы с поэтическими художественными текстами на английском языке. Автор обосновывает актуальность развития данной компетенции и теоретически описывает её в рамках компетентностного подхода. Кроме того, определяются структурные компоненты социокультурной компетенции, а также выделяются основные направления и эффективные педагогические стратегии её формирования.

Abstract

The article discusses the methods of developing sociocultural competence through working with poetic literary texts in English. The author substantiates the relevance of developing this competence and provides its theoretical characterization within the framework of the competency-based approach. In addition, the structural components of sociocultural competence are identified, and the main directions and effective pedagogical strategies for its formation are highlighted.

Kalit so'zlar: sotsiomadaniy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kommunikativlik, poeziya, poetik matn, original asar, tarjima metodi, eksperimental metod, madaniyatlararo muloqot, madaniyat.

Ключевые слова: социокультурная компетенция, коммуникативная компетенция, коммуникативность, поэзия, поэтический текст, оригинальное произведение, метод перевода, экспериментальный метод, межкультурная коммуникация, культура.

Key words: sociocultural competence, communicative competence, communicativeness, poetry, poetic text, original work, translation method, experimental method, intercultural communication, culture.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish (ya'ni talabning chet tilida samarali va mazmunli muloqot olib borishga tayyorligi hamda qobiliyati) global kommunikatsion sharoitda madaniyatlararo muloqotga kirisha oladigan shaxsni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab insonlar xorijiy tillarni o'rganishga katta ehtiyoj sezmoqda. Xususan, xorijiy tillarda erkin muloqot qilish, xalqaro darajadagi muzokarlarda ishtirok etish, ilmiy konferensiyalar va ko'rgazmalarda faol qatnashish, chet el safarlarida bo'lish, turizm sohasida samarali faoliyat yuritish hamda chet tillari bilan bog'liq kasbiy yo'nalishlarda professional darajada ishlash zamonaviy hayot talabi bo'lib bormoqda. Ushbu jarayonda xorijiy madaniyatni chuqur bilish, til egasi bilan madaniyatga mos muloqot olib borish va madaniyatlararo kontekstni to'g'ri tushunish ko'nikmalari yuqori darajada qadrlanadi.

Shu bois, ta'lim muassasalari zimmasiga talabada sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha mas'uliyatli va kompleks yondashuvni talab qiluvchi vazifalar yuklatilmoqda.

Chet tili o'qitish jarayonida pedagog nafaqat fonetik, leksik va grammatik bilimlarni o'rgatishi, balki talabalarni o'rganilayotgan til sohibi bo'lgan xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, milliy mentaliteti va nutqiy etikasi bilan tizimli tarzda tanishtirishi zarur.

Chet tili darslarida madaniyat mazmunidagi materiallardan foydalanish talabalarni boshqa mamlakatlarning madaniy va ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda eng muhimi — chet tilini o'zlashtirishga nisbatan ichki motivatsiyasini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi poetik matnlar ustida ishlash jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirishda quyidagi vazifalar belgilangan:

- “sotsiomadaniy kompetensiya” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash;
- sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullarini tahlil qilish;
- poetik matnlarning sotsiomadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini o'rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu ishning metodologik asosini tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika sohalaridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Jumladan, madaniyatshunos olimlar A.Y.Flier [5], O.N.Astafyeva va O.A. Zaxarova [4]ning tadqiqotlari, tilshunoslar — Yan van Ek [1], V.V.Safonova [2], P.V.Sisoyev [3] ishlarida bayon etilgan g'oyalar asos qilib olingan.

Shuningdek, pedagogik yondashuvlar I.A.Zimnyaya [7], S.E.Chexova [10] hamda T.A.Jukova [9]ning ilmiy qarashlari orqali asoslangan. Tadqiqotda talabalar bilan ishlashni rejalashtirish va boshlang'ich diagnostik ma'lumotlarni aniqlash maqsadida anketalash usuli qo'llanildi. Asosiy bosqichda esa poetik matnni til jihatidan o'rganish uchun lingvistik tahlil usuli, matnning asl nusxasi va tarjimasi o'rtasidagi semantik va stilistik farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil usuli, shuningdek, amaliy natijalarni aniqlash imkonini bergan eksperimental usuldan foydalanildi.

Tadqiqotda “sotsiomadaniy kompetensiya” tushunchasining mazmuni o'rganilib, uning davlat ta'lim standartlaridagi o'rnini aniqlab olindi. Xususan, ta'lim standartlarida sotsiomadaniy kompetensiya xorijiy tilni o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi va u nutqiy, lingvistik, o'quv-bilish va kompensator kompetensiyalar bilan bir qatorda ko'rsatiladi. Oliy ta'lim standartlarida ushbu kompetensiya alohida mustaqil unsur sifatida qayd etilmagan bo'lsa-da, uning tarkibiy elementlari bitiruvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalar tarkibida nazarda tutilgan.

Sotsiomadaniy kompetensiya tushunchasining xorijiy tillarni o'qitish nazariyasi va metodikasi doirasida shakllanishida Yan van Ek va Jon Trimning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida sotsiomadaniy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi [1. – P. 94-103.]. Kommunikativ kompetensiya esa shaxsning chet tilidan foydalangan holda kundalik hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirisha olishi, ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi va samarali muloqotni davom ettirish qobiliyati sifatida izohlanadi.

V.V.Safonovanning xorijiy tilni o'qitish nazariyasi va metodikasida e'tirof etilgan konseptual g'oyalari asosida metodistlar o'z diqqat markazlarini sotsiomadaniy kompetensiya fenomenini sotsiomadaniy yondashuv doirasida tadqiq etishga yo'naltira boshladilar [2]. Mazkur yondashuvning metodologik asosini milliy va xalqaro madaniyatlarga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabat tashkil etadi. Bu yondashuv, bizning nazarimizda, shaxsning madaniyatlararo muloqotida faol va ongli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv bo'lib, u talabaning o'z milliyligini saqlagan holda boshqa madaniyatlarni chuqur tushunishiga xizmat qiladi.

Sotsiomadaniy kompetensiya muammosi, tabiiyki, faqat tilshunoslar va madaniyatshunoslarnigina emas, balki zamonaviy pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining ham e'tibor markazida bo'lgan. Xususan, rossiyalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sotsiomadaniy kompetensiya tushunchasiga nisbatan yangi, zamonaviy yondashuvlar shakllangan bo'lib, bu yondashuvlar nafaqat ushbu kompetensiyaning mohiyatini, balki uning tarkibiy elementlarini ham kengroq va chuqurroq tahlil etishga yo'naltirilgan. I.A.Zimnyaya [7], A.V.Xutorskoy [8], T.A.Jukova [9], S.E.Chexova [10] va E.A.Jejera [11] tomonidan olib borilgan izlanishlarda til taraqqiyoti bilan jamiyat rivoji o'rtasidagi uzviy aloqadorlikka hamda nutqiy muhit va sotsiomadaniy kontekst o'rtasidagi bevosita bog'liqlikka alohida urg'u beriladi. Biroq chet tili o'qitish metodikasida kompetensiyaviy yondashuvga asos solgan

PEDAGOGIKA

I.A.Zimnyaya hamda A.V.Xutorskoy o'z konsepsiyalarida sotsiomadaniy kompetensiyani mustaqil va asosiy kalit kompetensiyalar tarkibiga kiritmagan.

Bundan tashqari o'zbek olimlari J.J. Jalolov, O'. Hoshimov va I. Yoqubovlarning ishlari tahlil qilingan holda tadqiqotga tortildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sotsiomadaniy kompetensiyani mustaqil tarkibiy birlik sifatida talqin etish masalasi T.A.Jukova, S.E.Chexova va E.A. Jejera ilmiy izlanishlari bilan bevosita bog'liqdir. Dastlab T.A. Jukova ushbu kompetensiya tushunchasini nazariy muomalaga kiritgan bo'lsa, keyinchalik S.E.Chexova va E.A.Jejera bu tushunchani yangi tarkibiy jihatlar bilan boyitgan. Jumladan, S.E. Chexova bilimga asoslanganlik (ilg'or va reflektiv xususiyat) mezonini[10], E.A.Jejera esa shaxsiy qadriyat yo'nalishlarini sotsiomadaniy kompetensiyaning ajralmas komponentlari sifatida ilgari surgan[11]. Shu asosda sotsiomadaniy kompetensiya shaxsning murakkab integrativ xususiyati sifatida ilmiy asosda shakllantiriladi.

T.A.Jukova va E.A.Jejera sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirishga bag'ishlangan keyingi ilmiy ishlari ushbu kompetensiyaning murakkabroq va ko'p qirrali tarkibiy tuzilishini yoritib bergan. Jumladan, T.A.Jukova tomonidan sotsiomadaniy kompetensiyaning quyidagi asosiy tarkibiy komponentlari ajratib ko'rsatilgan:

a) *kognitiv komponent* – shaxsning o'z milliy madaniyati va o'rganilayotgan tilga oid bilimlar majmui;

b) *aksiologik komponent* – jamiyatda e'tirof etilgan umumiy va madaniyatga xos qadriyatlar tizimini anglash va ularga nisbatan munosabatni shakllantirish;

c) *shaxsiy-operatsion komponent* – madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan kommunikativ malakalar va interaktiv ko'nikmalar tizimi;

d) *baholovchi-refleksiv komponent* – shaxsning o'zining madaniy tajribasini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish, ijtimoiy xatti-harakatlarni baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi;

e) *konseptual komponent* – kasbiy faoliyat kontekstida sotsiomadaniy jarayonlar va madaniyatlararo aloqalarga doir konseptual bilim va tasavvurlar majmuasi[9].

Fikrimizcha, mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi sotsiomadaniy kompetensiyani shaxsning murakkab va yaxlit qaraladigan integrativ xususiyati sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu tariqa, aynan rus pedagoglari va metodistlarining ilmiy izlanishlari natijasida sotsiomadaniy kompetensiya xorijiy tillarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuv doirasida mustaqil o'rin egalladi: ular sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish shart-sharoitlarini va uning batafsil tarkibiy tuzilmasini aniqlab berdilar.

Endilikda xorijiy tilni o'rganish faqatgina kommunikativ malakalarni –suhbatdoshni tushunish va fikrni ifoda etish qobiliyatini shakllantirish bilangina cheklanmaydi. O'zbek olimlaridan J.Jalolov [13], O'.Hoshimov va I.Yoqubovlar [14]ning asarlarida chet tili o'qitish jarayonida pedagog o'zaro chet tilida og'zaki muloqot chog'ida suhbatdoshiga hurmat bilan qarashi, chet tilini o'rganish mobaynida xorijiy shoir, yozuvchi, atoqli olimlarning ishlari bilan tanishishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu esa talabani dunyoqarashini kengaytiradi, tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi[14. –B.191.]. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi talabalarda xorijiy madaniyatga oid tasavvurlarni shakllantirish, ularni ushbu madaniyatga yaqinlashtirish, unga bo'lgan hurmat hissini uyg'otish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Xorijiy til darslarida badiiy matnlarni o'qish jarayoni sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi, chunki u turli madaniyat sohalariga oid bilimlarni hosil qilishga xizmat qiladi. Albatta, bu orqali nafaqat madaniy xususiyatlar o'rganiladi, balki bir qator boshqa o'quv maqsad va vazifalar ham amalga oshiriladi, jumladan, yangi leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar, fonetik hodisalar va boshqalar[12. –B.49.]. Badiiy matnlar xorijiy til o'qitishning ajralmas qismi hisoblanganligi sababli, o'qituvchi oldida muhim vazifa – o'quv jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlarni maksimal darajada qondira oladigan mos adabiy asarlarni tanlash masalasi turadi. Tajribali pedagog esa, til va nutq kompetensiyalarini hamda sotsiomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan madaniy tarkibni o'zida mujassam etgan materialni tanlay oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirishning bir qator samarali usullari mavjud. Mazkur tadqiqotda esa ana shunday vositalardan biri sifatida poetik matndan foydalanish tanlab olindi. E'tiborga molikki, poeziya sotsiomadaniy kompetensiyani

rivojlantirish vositasi sifatida ilmiy-adabiy manbalarda yetarlicha o'rganilmagan. Biroq poetik matn o'zida madaniy xususiyatlarning ko'p qirrali aksini mujassam etib, xorijiy til (xususan, ingliz tili) darslarida ularni samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, poetik matnning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Aynan ushbu jihatlar talabalarda individual madaniy ongni shakllantirish hamda ularni sotsiomadaniy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi — bu esa ta'lim jarayonining istalgan bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Quyida chet tili o'qitish darslarida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari Amerika adabiyoti namunalari ustida ishlash orqali ochib beriladi va tahlil qilinadi:

Tajriba sifatida amerikalik shoirlar Robert Frostning "The Road Not Taken" va Maya Angelouning "Still I Rise" poetik she'rlari olindi.

Robert Frostning she'rida qahramonning o'rmondagi ikki yo'l yoqasida turib, ulardan birini tanlashi kerakligi haqida hikoya qilinadi:

Two roads diverged in a yellow wood,
And sorry I could not travel both
And be one traveler, long I stood
And looked down one as far as I could
To where it bent in the undergrowth [15].

Ikkinchi poetik namuna bu Maya Angelouning "Still I Rise" she'ri bo'lib, unda inson erkinligi, qat'iyati va huquqlari, irqi, rangi va jinsidan qat'iy nazar jamiyatda teng mavqega ega bo'lishi lozimligi ifoda etilgan:

You may write me down in history
With your bitter, twisted lies,
You may trod me in the very dirt
But still, like dust, I'll rise.
Does my sassiness upset you?
Why are you beset with gloom?
Cause I walk like I've got oil wells
Pumping in my living room [16].

Demak, yuqorida keltirib o'tilgan she'rlar yordamida talabalarning sotsiokulturologik bilimlarini shakllantirish va ularning til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda bir nechta metod va mashqlardan foydalanish mumkin. Masalan, talabalardagi lug'at boyligini oshirishda "Word Play" mashqidan foydalanish maqsadga muvofiq, ya'ni bunda talaba she'rdagi o'ziga noma'lum va madaniyatiga xos bo'lmagan so'zlar, she'r strukturasi va mazmunini o'rganadi. Shu asosida o'z she'rini yaratishga harakat qiladi, boshqa madaniyat va jamiyatga aloqador so'zlarni o'rganib, tahlil qiladi. Misol uchun ikkala she'rda ishlatilgan "yellow wood" yoki "oil wells" kabi aynan amerikaliklarning jamiyatiga aloqador so'zlar shular jumlasidandir. Bunda talaba yangi so'zlarni tahlil qilib, ularning qaysi ma'noda qo'llanilganligiga alohida e'tiborini qaratadi.

O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun "Reader's Theatre" mashqidan foydalanish mumkin. Bunda talabalar guruh bo'lib ishlaydi, she'r mazmuni asosida o'z hikoyalarini yaratib, uni sahnalashtiradi. Bu mashq yordamida ifodali o'qish, she'r ma'nosini anglash, ijodkorlik qobiliyatlari rivojlantiriladi. Birinchi she'rdan xulosa qilib, talabalar mustaqil fikr yuritishga oid, ikkinchi she'rdan esa irqi, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tenglik ustuvor bo'lgan fikrni ilgari surishi nazarda tutiladi.

Talabalar "Freewriting" mashqi orqali belgilangan vaqt mobaynida she'r mazmunidan kelib chiqib, mustaqil ravishda o'z hikoyasini yozadi. Masalan, har ikkala she'r mazmunidan kelib chiqqan holda, individuallik, tanlov erkinligi, inson qadr-qimmati va tengligi kabi mavzular asosiy planda tasvirlanadi. Bu esa talabalarda erkin fikr yuritish, yozish ko'nikmasini rivojlantirish, "self-evaluation", ya'ni o'z-o'zini baholash yoki "peer-evaluation" — sherigini baholash ko'nikmalaridan unumli foydalanish uchun imkon yaratadi.

Gapirish ko'nikmasini oshirishda poetik matnlarning o'rni muhim sanaladi. Bunda "Running Dictation" mashqidan foydalanish mumkin, ya'ni sinf devorlariga she'r bandlari yopishtiriladi, talabalar esa ularni o'qib, mazmunini o'tirgan sheriklariga hikoya qilib beradi. Bu jarayonda matnni esda saqlash va fikrni og'zaki bayon qilish qobiliyatlari o'stiriladi. Mashq yakunida talabalar kichik

PEDAGOGIKA

guruhlarda ishlab, o'z fikr-mulohazalarini bir-biri bilan bo'lishadi, natijada gapirish bilan bir qatorda tanqidiy-kognitiv fikrlash ko'nikmalari ham shakllanib boradi.

Har ikkala she'rlarning sotsiomadaniy kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- Talabalardagi madaniyatlararo muloqot va tafakkurni rivojlantiradi;
- Ingliz adabiyotiga xos falsafiy qarashlar bilan tanishtiradi;
- Tanqidiy fikrlashni oshiradi, shoir o'rnida bo'lganda qanday yo'l tutish kabi hayotiy vaziyatlarni o'rgatadi;

- Bahs-munozara qilish orqali fikr almashinuvi jarayoni sodir bo'ladi;
- Madaniyatlar taqqoslanadi, har bir madaniyatga xos xususiyatlar tahlil qilinadi, natijada o'zga madaniyatlarga bo'lgan hurmat hissi uyg'onadi.

Bunda poetik matnlarning qisqa, tushunilishi oson va sodda tilda yozilgan bo'lishi turli bilim darajasidagi talabalar uchun muhim sanaladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish poetik matnlar bilan ishlash jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Poetik matnlar chet tili o'rganish jarayonida boshqa madaniyat va ularga xos xususiyatlarni o'rganish uchun samarali vosita sanaladi. Ammo bunda o'qituvchidan tahlil qilish murakkablik tug'dirmaydigan she'rlar tanlash talab etiladi. Aks holda, talabalar orasida tushunmovchilik va xatoliklar sodir bo'lishi mumkin. Tadqiqot davomida sotsiomadaniy kompetensiyaning tarkibiy qismlari aniqlandi va ularni poetik matnlar asosida samarali rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi. Eksperimental ish natijasida talabalarining she'rlar bilan ishlashi faqatgina ulardagi sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantiribgina qolmay, balki ijodiy tafakkuri, tanqidiy va falsafiy fikrlashini ham samarali rivojlantirishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ek van, J., & Trim, J. L. M. (1991). Threshold 1990. Strasbourg: Council of Europe Press.
2. Сафонова, В. В. (2004). Коммуникативная компетенция: современные подходы к многоуровневому описанию в методических целях. Серия: О чем спорят в языковой педагогике. Москва: Еврошкола.
3. Сысоев, П. В. (2001). Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка. Иностранные языки в школе, (4), 12–18.
4. Астафьева, О. Н., & Захарова, О. А. (2007, 8–10 июля). Информационно-коммуникативная компетентность личности в условиях становления информационного общества. В Судьба России: вектор перемен: материалы международной научной конференции. URL: <https://refdb.ru/look/2811615.html> (murojaat sanasi: 16.07.2025).
5. Флиер, А. Я. (2000). Культурная компетентность личности: между проблемами образования и национальной политики. Общественные науки и современность, (2), 151–165.
6. Садохин, А. П. (2007). Межкультурная компетентность. Журнал социологии и социальной антропологии, 10(1), 125–139.
7. Зимняя, И. А. (2006). Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования. Интернет-журнал «Эйдос». URL: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm> (murojaat sanasi: 16.07.2025).
8. Хуторской, А. В. (2002). Определение общепредметного содержания и ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов. Интернет-журнал «Эйдос». URL: <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm> (murojaat sanasi: 28.06.2025).
9. Жукова, Т. А. (2007). Педагогическая технология формирования социокультурной компетентности будущих учителей (автореф. дис. ... канд. пед. наук). Самара.
10. Чехова, С. Э. (2003). Роль и место социокультурной компетентности в подготовке студентов вуза (автореф. дис. ... канд. пед. наук). Нижний Новгород.
11. Жежера, Е. А. (2008). Формирование социокультурной компетентности курсантов высших военно-учебных заведений в процессе изучения гуманитарных дисциплин (автореф. дис. ... канд. пед. наук). Челябинск.
12. Кретьева, Л. Н. (2018). Социокультурная компетенция и способы её формирования в процессе работы с поэтическим текстом на английском языке. Сибирский педагогический журнал, (1), 45–55.
13. Jalolov, J. J. (2012). Chet tili o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi.
14. Хошимов, Ў., & Ёкубов, И. (2003). Инглиз тили ўқитиш методикаси. Тошкент: Шарқ.
15. Frost, R. (1915). The road not taken. The Atlantic Monthly.
16. Angelou, M. (1978). Still I rise. In Still I Rise.